

KONFERENSIYALAR .COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

AVGUST, 2025

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiylar.com>



KONFERENSIYALAR .COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 7-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rinni organ bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Bozorboyev Abbosjon, Ravshanov Shavkat

KUNJUT O'SIMLIGINING XUSUSIYATLARI VA UNING HOSILINI YIG'ISHTIRIB OLISHDAGI

MUAMMOLARI..... 6-9

Iskandarov Orifxon

TIRIKOTAJ MATOLARIDA SIFAT NAZORATI 10-12

Odinayev Mirjalol

"AI-TRANSLATE" TEXNIK HUJJATLARNI SUN'YI INTELLEKT ORQALI AVTOMATIK TARJIMA

QILISH VA HUQUQIY MASLAHATLAR AXBOROT TIZIMI – TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA

SOLISHDA INNOVATSION YECHIM 13-18

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Karimov Nurbek

TURLI USULDA YERGA ISHLOV BERISHNI SOYA PARVARISHLANGAN MAYDON

TUPROG'INING SUV O'TKAZUVCHANLIGIGA TA'SIRI 19-22

TARIX FANLARI

Bobojonova Zuxra

TEMURIY MALIKALARLING HUKMDORLAR HAYOTIDAGI O'RNI 23-25

Xalilov Baxodir

ZAMONAVIY KUTUBXONALARLING MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMDAGI O'RNI: NAVOIY

VILOYATI MISOLIDA 26-31

Xoliqova Ra'noxon

*"MARKAZIY OSIYODA SUN'YI INTELLEKT TUFAYLI AYOLLAR IMKONIYATLARI: STEM TA'LIMI,
GENDER TENGLIGI VA IQTISODIY FAOLLIK SSENARIYLARI" 32-34*

Xasanova Nargiza

YANGI DAVR: ILM-FANI INNOVASIYALARIDA AYOL-QIZLAR ISHTIROKINING DOLZARB

AHAMİYATI 35-38

IQTISODIYOT FANLARI

Salomov Temurbek

THE ROLE OF PILGRIMAGE TOURISM IN ENHANCING THE SERVICE SECTOR:

A CASE STUDY OF UZBEKISTAN 39-43

Raxmanov Ulugbek

TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING HISOBVARAQLAR REJASIGA MUVOFIQ

TAHLILIY AVTOMATLASHTIRILGAN NAZORAT MEXANIZMINI YARATISH 44-45

Toshtemirov To'lqin

KICHIK TADBIRKORLIK SUB'EKTALARINING SUN'YI BO'LINISH MUAMMOLARI 46-49

Mansurova Sayyora

INNOVATSION PROPTECH-PLATFORMALAR VA

ULARNING KO'ChMAS MULK BOZORIGA TA'SIRI 50-53

Rajabov Alibek

INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKKLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARIH 54-57

Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda

EFFECTS OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT ENVIRONMENT: LESSONS FROM

GLOBAL EXPERIENCES 58-60

FALSAFA FANLARI

Abdullayev Sodiqjon

MILLIY O'ZLIKNI TIKLASH JARAYONIDA EKOLOGIK TAFAKKUR VA SALOMATLIK QADRIYATLARI..... 61-66

Gafurova Munojat

O'ZBEKİSTONDA GENDER TENGLİGINI TA'MINLASHDAGI JAMIYAT VA DAVLAT O'RTASIDAGI DIALEKTİK MUNOSABATLARI..... 67-70

Davronov Bahodir

SUN'İY INTELLEKT YORDAMIDA AXBOROT MUHİTİNİNG GUMANİTAR QADRIYATLARGA NISBATAN ASİMMETRİK MUNOSABATI..... 71-76

Latipov Sardor

KORRUPSIYANING TARIXAN SHAKLLANISHI VA TURLARI 77-81

FILOLOGIYA FANLARI

Xoliyorova To'lg'anoy

O'ZBEK TİLİ MILLIY KORPUSINING TA'LIM VA ILMİY TADQIQOTLARDAGI O'RNI..... 82-83

Ro'ziyev Temur

ADABIY-ESTETIK QARASHDA TAFAKKUR VA TUYG'UNİNG O'RNI 84-92

Gulmuradova Sobira

"XUSHKELDI" DOSTONI MATNI TARKIBIDAGI ETNOGRAFİZMLARNING MILLİY - MADANIY XUSUSİYATLARI..... 93-95

Qosimova Malika

SINXRON TARJIMADA MASHINA TARJIMASINING AFZALLIKLARI XUSUSIDA 96-99

Bahromjonova Shahnoza

*HODI ZARIF VA YANAGITA KUNIO ILMİY MEROSI:
FOLKLORSHUNOSLIKDA QIYOSIY TAHLİL* 100-102

Ayimbetova Damekhan

*ZAMONAVIY INGLIZ SHE'RIYATIDA HAYVONLARNI
TASVIRLASHNING O'ZIGA XOSLIKLARI* 104-107

YURIDIK FANLARI

Komilov Avazbek

*INTIZOMİY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDA ISH QO'ZG'ATISH HAqidagi qaror,
UNING SHAKLI VA MAZMUNIGA NISBATAN TALABLAR*..... 108-110

Shamsitdinova Manzura

TEACHING LISTENING COMPREHENSION 111-112

Xadjiyev Azizbek

"IJTIMOIY ADOLAT" TAMOYILINING XALQARO QONUNCHILIK AMALIYOTIDA YORITILISHI..... 113-116

Уктамов Комрон

РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРАНСГРАНИЧНЫХ ВОД ПЕРВЫМ ВОДНЫМ КОДЕКСОМ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН..... 117-123

<i>Исмоилов Бекрузбек</i>	
<i>ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....</i>	<i>124-129</i>
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Qo'shmurodova Aziza</i>	
<i>BOSHLANG'ICH SINFLARDA VATANGA MUHABBAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INTEGRATSİYALASHGAN TA'LIM METODLARINI QO'LLASH.....</i>	<i>130-133</i>
<i>Mamatqosimova Nodira</i>	
<i>SSENARIY YARATISHDA BADIY ADABIYOT NAMUNALARIDAN FOYDALANISH USULLARI</i>	<i>134-137</i>
<i>Sattoriy Shohruh</i>	
<i>TA'LIM SIFATI USTIDAN NAZORAT MEXANIZMLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....</i>	<i>138-141</i>
<i>Jabborova Umida</i>	
<i>TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TEXNIK SAVODXONLIGINI ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....</i>	<i>142-144</i>
<i>Xujanazarova Nozima</i>	
<i>RAQAMLI PLATFORMALARDA IQTISODIY MATNLARNI TARJIMA QILISHGA YO'NALTIRILGAN INTERAKTIV O'QUV TOPSHIRIQLARI VA KEYS-STADIYALARINI YARATISH.....</i>	<i>145-148</i>
<i>Aripjanova Dinora</i>	
<i>RAQOBATBARDOSH RAHBAR SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA MOTIVATSIYA MEXANIZMLARINING SAMARALI MODELI.....</i>	<i>149-151</i>
<i>Dosanova Gulbanu</i>	
<i>OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI.....</i>	<i>152-154</i>
<i>Isokov Ravshanbek</i>	
<i>INNOVATIVE APPROACHES TO FOSTERING HISTORICAL MEMORY AND CULTURAL IDENTITY IN STUDENTS.....</i>	<i>155-160</i>
TIBBIYOT FANLARI	
<i>Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza</i>	
<i>XOSHIMOTO TIREOIDITINING KECHISHIDA RUXNING O'RNI.....</i>	<i>161-163</i>
<i>Nabiyeva Umida</i>	
<i>GIPERTONIYANING KELIB CHIQISHI VA OLDINI OLISHNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI.....</i>	<i>164-166</i>
PSIXOLOGIYA FANLARI	
<i>Polvanov Rasulbek</i>	
<i>INTERNET QARAMLIGI VA SHAXSNING IJTIMOIY MOSLASHUVIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR ZAMONAVIY MAUGLI SINDROMI KONTEKSTIDASH</i>	<i>167-172</i>
<i>Усманова Лилия</i>	
<i>ТИПОЛОГИЯ СЕМЬИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ТРАДИЦИИ, ТРАНСФОРМАЦИИ И СОВРЕМЕННЫЕ ВЫЗОВЫ.....</i>	<i>173-176</i>

ZAMONAVIY KUTUBXONALARNING MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMDAGI O'RNI: NAVOIY VILOYATI MISOLIDA

Xalilov Baxodir Shirinboyevich

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti o'qituvchisi

Annotation. Ushbu maqolada kutubxonalarning maktabdan tashqari ta'lif tizimidagi roli, xususan Navoiy viloyati misolida tahlil etilgan. Kutubxonalar o'quvchilarning bilim olish, mustaqil o'rGANISH va ijodiy salohiyatini rivojlantirishdagi o'rni, bolalar kutubxonalari faoliyati, statistik ko'rsatkichlar hamda mavjud muammolar yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktabdan tashqari ta'lif, kutubxona, bolalar kutubxonasi, kitobxonlik, madaniyat, ta'lif muassasasi.

THE ROLE OF MODERN LIBRARIES IN OUT-OF-SCHOOL EDUCATION: THE EXAMPLE OF NAVAI REGION

Khalilov Bakhodir Shirinboyevich

Teacher of Navoi State University of Mining and Technology

Annotation. This article explores the role of libraries in the system of out-of-school education, using the case of Navoi region. It analyzes how libraries contribute to students' knowledge acquisition, independent learning, and creative development. The paper also highlights the significance of children's libraries, provides statistical data, and addresses existing challenges.

Key words: out-of-school education, library, children's library, readership, culture, educational institution, mobile library.

Kutubxonalar zamnaviy ta'lif tizimida, ayniqsa, maktabdan tashqari ta'lifning ajralmas bo'g'ini sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ular nafaqat bilim olishga xizmat qiluvchi muassasa, balki yosh avlodning mustaqil fikrashi, ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ma'naviy-estetik tarbiyasini shakllantirishda muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Kutubxonalar o'quvchilarga o'z bilimlarini mustahkamlash, darsdan tashqari vaqtida o'z ustida ishlash, shaxsiy qiziqishlariga mos adabiyotlarni o'rGANISH imkonini yaratadi.

Kutubxonalar o'z fondlarida kitoblar, davriy nashrlar, elektron resurslar va boshqa bilim manbalarini jamlagan holda o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Ayni paytda, ko'plab kutubxonalarda kitobxonlik klublari, chet tilini o'rgatish kurslari, kompyuter savodxonligi darslari, ijodiy to'garaklar va turli mashg'ulotlar muntazam yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek, kutubxonalar orqali kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar – kitob ko'rgazmalari, mualliflar bilan uchrashuvlar, adabiy kechalar tashkil etiladi. Bu jarayon kutubxonani faqat adabiyot saqlanadigan joy sifatida emas, balki madaniyat va ta'lif uyg'unlashgan markaz sifatida namoyon qiladi.

Navoiy viloyatida mustaqillikning dastlabki yillarida 300 dan ortiq kutubxona faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2024 yilga kelib ularning soni 17 taga kamaygan. Shundan 1 tasi – viloyat kutubxona markazi, 9 tasi tuman va shahar axborot-kutubxona markazlari, 1 tasi – viloyat

bolalar kutubxonasi, qolganlari esa oliv ta'lif, maxsus ta'lif va ishlab chiqarish korxonalariga qarashli axborot-resurs markazlaridir.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ushbu kutubxonalar fondi 1,266 milliondan ortiq adabiyotdan iborat bo'lib, ulardan yillik o'rtacha 132 ming kishi foydalanmoqda. Kitobxonlarning asosiy qismini 18-24 yoshdagi talabalar va o'quvchilar tashkil etadi. Ayniqsa, 14 yoshgacha bo'lgan maktab o'quvchilari orasida kitobxonlik ko'rsatkichlari nisbatan yuqori. 2021 yil ma'lumotlariga ko'ra, 14 yoshgacha bo'lgan 26,1 ming, 15-17 yosh oralig'ida esa 22,4 ming o'quvchi kutubxonadan foydalangan.

Aholining kutubxonalarga murojaatida hududlar bo'yicha nomutanosiblik mavjud. Shahar hududlarida xizmatdan foydalanish darajasi yuqori bo'lsa-da, qishloq joylarda bu ko'rsatkich pastligicha qolmoqda. Bunga sabab sifatida kutubxonalar asosan shaharlarda joylashgani, infratuzilma va transport muammolari keltiriladi.

Bolalar kutubxonalari – yoshlarning tafakkurini shakllantirish, bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish, ularni kitobxonlik madaniyatiga jalb etishda asosiy vositalardan biridir. Ular orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil, munozara yuritish va nutq madaniyatini rivojlantirishga erishiladi.

Navoiy viloyat bolalar kutubxonasi 2001- yilda tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda u 339 952 nusxa adabiyot fondiga ega. Bu kutubxonada rasm chizish, matematikaga oid mashg'ulotlar, hamda milliy hunarmandchilik bo'yicha to'garaklar faoliyat yuritadi. Shuningdek, "Harakatdagi kutubxona" loyihasi doirasida kutubxonaga bora olmaydigan kitobsevarlar uchun mobil xizmatlar ko'rsatilmoqda. "Kitobxonlar klub" orqali esa onlayn platformada kitobxonlik faoliyati yo'nga qo'yilgan.


2023 yilda o'tkazilgan "Kitobxonlik festivali" ushbu faoliyatni keng jamoatchilikka tanitdi va yoshlar o'rtaida kitobga bo'lgan e'tiborni yanada oshirdi.

Maktabdan tashqari ta'lif tizimining samarali ishlashi uchun kutubxonalarning rolini kuchaytirish, ularning soni va sifatini oshirish, ayniqsa qishloq hududlarida ularni tashkil etish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Quyidagi yo'naliishlar bo'yicha chora-tadbirlar amalgalashirilishi maqsadga muvofiq:

- Qishloq va olis hududlarda zamonaviy kutubxonalar tashkil etish;
- Kutubxonalarni raqamlashtirish, elektron adabiyotlar bazasini kengaytirish;
- Maktab kutubxonalarini bolalar kutubxonalari bilan integratsiya qilish;
- Yoshlar o'rtaida kitobxonlik targ'ibotini kuchaytirish uchun festival, tanlov va ko'rgazmalarni tizimli ravishda o'tkazish;
- Davlat-xususiy sheriklik asosida kutubxonalarni rivojlantirishga investorlarni jalb qilish.

Viloyatda kutubxonalardan foydalanuvchilarning asosiy qismini 18-24 yoshdagilar tashkil etgan. Demak, ular asosan oliy ta'lif muassasalariga tayyorlanayotgan o'quvchilar va talabalar tashkil etadi. Shuningdek, maktab o'quvchilari orasida kutubxonalarning asosiy foydalanuvchilari 14 yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil etadi. Shuningdek, 2021-yili jami 22,4 ming nafar 15-17 yoshdagi bolalar, xususan, ularning 20,2 min nafar shahar joylarida, 2,2 ming nafari esa qishloq joylardagi kutubxonalar foydalanuvchilaridir (2-diagrammaga qarang).

Diagramma №2.



Manba: Navoiy viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari

Ma'lumotlardan ko'rilib turibdiki, Navoiy viloyati kutubxonalarining asosiy foydalanuvchilari bu maktab yoshidagi o'quvchilar tashkil etadi. Shuningdek, kutubxonalarning asosiy foydalanuvchilari bu shahar joylardagi isiqomat qilayotgan aholi va asosan o'quvchi-yoshlardan iboratdir. Buning asosiy sabablaridan bir markaziy kutubxonalar asosan viloyatning markaziy shaharlarida joylashgan. Navoiy viloyati aholisining asosiy qismi esa qishloq joylarda istiqomat qiladi. Demak, viloyatning olis tumanlari va qishloqlarida ham davlat va xususiy sherikchilik asosida, investorlarni jalb qilgan holda kutubxonalar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarning matabdan tashqari ta'lim olishlarida bolalar kutubxonalarining ahamiyati muhimdir. Bolalar kutubxonasi - bu bolalarning bilim olish, o'qishga qiziqishini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va dam olishi uchun maxsus tashkil etilgan muassasadir. Bolalar kutubxonasi bolalarning intellektual, ijodiy, ma'naviy va jismoniy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Ular bolalarni kitob o'qishga qiziqtiradi, bilim olishga intilishini rag'batlantiradi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi va jamiatda o'z o'rnini topishga yordam beradi.

Bolalar kutubxonalari, o'quvchilarning yoshiga, qiziqishiga va o'quv dasturiga mos keluvchi kitoblar, jurnallar, gazetalar va boshqa nashrlarni taqdim etadi, kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish, bolalar uchun kitob taqdimotlari, adabiy uchrashuvlar, viktorinalar va boshqa tadbirlar tashkil etadi, o'quvchilarning darslarga tayyorlanish, referatlar va loyihamar yozish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etadi, turli to'garaklar, studiyalar va master-klasslar tashkil etish, bolalarni san'at, musiqa, adabiyot va boshqa ijodiy sohalarga jalb etadi. Shuningdek, bolalar kutubxonasi kitoblarni tanqidiy baholash, munozaralarda ishtirok etish va o'z fikrini himoya qilishga o'rgatadi, kompyuter savodxonligi kurslarini tashkil etish, internetdan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantrishga yordam beradi.

Kutubxonada rasm chizish, bichish-tikish, matematika to'garaklari tashkil etilgan. Shuningdek, kitobxon bolalarni kutubxonaga yanada ko'proq jalb etish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida «Yilning eng yaxshi kitoblari» nomli ko'rgazma, «Biz-

bilimdon bo'lamiz» o'yin mashg'ulotlari, «Kitobim–oftobim mening» viktorinalar, «Kutubxonasiyo maskani» nomida ekskursiyalar va boshqa tadbirlar doimiy ravishda tashkl etib turildi. Kutubxona viloyatdagi 13 ta bolalar kutubxonalariga metodik rahbarlik qilgan[4]. Biroq keyinchalik viloyatdagi ko'plab kutubxonalar singari bir necha bolalar kutubxonalari faoliyati ham tugatildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 27 maydag'i "Maktabdan tashqari ta'lim tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaharida "Bolalar kutubxonalari" tashkil etildi. Shunga asosan, Navoiy viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Bolalar kutubxonasi tashkil etildi.

Viloyat Bolalar kutubxonasi kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish, mutolaaga targ'ib qilish hamda o'quvchilar o'rtasida kitobxonlar sonini oshirish bo'yicha ko'pgina ishlar olib borilmoqda. Belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida viloyat Bolalar kutubxonasi tomonidan 11 ta tuman, shahar maktab kutubxonalarida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, bugungi kunda Xatirchi tumanidagi umumiyl o'rta ta'lim maktablarining har birida kutubxona mavjud bo'lib, ularda jami kitob fondi badiiy adabiyotlar 100246 donani, darsliklar jami 35074 ta to'plamni tashkil etadi[5].

Viloyat Bolalar kutubxonasi tomonidan aholining kitobga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish, kitobxonlikni rivojlantirish maqsadida jamg'armadagi adabiyotlar orqali tashkilot va mahallalarda ko'chma kutubxonalar tashkil etilgan. Shu maqsadda ikki tomonlama hamkorlik shartnomasi tuzildi. Ushbu shartnomaga orqali 18 ta tashkilot va DMTTlarida ko'chma kutubxonalar tashkil qilindi. "Harakatdagi kutubxona" orqali nafaqadagi va kutubxonaga kelolmaydigan bemor kitobxonlarning yashash xonadonlariga borib, ktubxonachilik xizmati ko'rsatiladi¹.

Kitobxonlar sonini oshirish maqsadida onlayn tarzda "Kitobxonlar klubi" guruhi tashkil etilgan bo'lib, "Kitobxonlar klubi" a'zolariga onlayn tarzda videoroliklar va elektron adabiyotlar muntazam taqdim etib turiladi.

Kichik yoshdagagi kitobxonlarni qiziqishini oshirish va kutubxonaga qatnovni ko'paytirish maqsadida Har oyda bir marta Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga kutubxonachilar kitob taqdimotlarini o'tkazib kelishadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining Bolalar kutubxonasiiga sayohati har oy reja asosida rejalshtirilgan va sayohat tashkil etib kelinmoqda[6].

¹ Navoiy viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Bolalar kutubxonasi direktori R.Rizayeva bilan intervyyu. 2024 yil, 18 dekabr.



Navoiy viloyat bolalar kutubxonasi o'quvchi-yoshlar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib etish maqsadida turli tadbirlarni tashkil etishni yo'lga qo'ygan. Masalan, 2023-yil oktyabr oyida Bolalar kutubxonasi tomonidan viloyat "Ma'naviyat va ma'rifat markazi"da O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 sentabrdagi "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish" bo'yicha 5 ta muhim tashabbus doirasida o'quvchi-yoshlarning kitobxonlikka bo'lgan qiziqishini oshirish, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish maqsadida "Kitobxonlik festivali" o'tkazildi. Ushbu festivalga respublikaning turli hududlaridan o'quvchi-yoshlar ishtirok etdilar. Tadbirda Navoiy viloyat "Barkamol avlod" maktabi hamda viloyat Bolalar kutubxonasi tomonidan kitoblar ko'rgazmasi tashkil etildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kutubxona – bu ta'lim, madaniyat va jamiyat hayotida alohida o'rinn tutuvchi, maktabdan tashqari ta'limning mustahkam poydevoriga aylanuvchi muhim ijtimoiy institutdir.

Adabiyotlar/Literatura/References:

- Ўзбекистоннинг йирик кутубхоналари методик маълумотнома. Тошкент Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти 2004. – Б.52.
- Холмираев Н. Хатирчи туман халқ таълими бўлими тарихининг айrim жиҳатлари. Хатирчи тарихидан лавҳалар. Республика илмий анжумани материаллари. – Тошкент: 2002. – Б. 314.
- Navoiy viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Bolalar kutubxonasi direktori R.Rizayeva bilan intervyyu. 2024 yil, 18 dekabr.
- Navoiy viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Bolalar kutubxonasi joriy arxiv. 2024 yil.
- Ўзбекистоннинг йирик кутубхоналари методик маълумотнома. Тошкент Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти 2004. – Б.52.

5. Холмирзаев Н. Хатирчи туман халқ таълими бўлими тарихининг айрим жиҳатлари. Хатирчи тарихидан лавҳалар. Республика илмий анжумани материаллари. – Тошкент: 2002. – Б. 314.
6. Navoiy viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Bolalar kutubxonasi joriy arxivi. 2024 yil.

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR
VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

Mas'ul muharrir:

F.T.Isanova

Texnik muharrir:

N.Bahodirova

Diszayner:

I.Abdihakimov

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 7-avgust

Barcha huqular himoyalangan.

© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.